

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA
MASALALAR YECHISHDA MANTIQUIY FIKRLASH**

Xayitova Shoira Xolboboyevna

Yakkabog' tumani 13-sonli maktab O'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lgan mantiqiy fikrlash hamda kreativ fikrlashni boshlang'ich sinflarda matematika darslaridagi ahamiyati yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: Geometrik shakllar, taqqoslash, qo'shish hadlari, ayirish hadlari.

Kirish. Ma'lumki bugungi kunda har bir sohada, har bir yo'nalishda erkin fikrlash mantiqiy fikr va mustaqil ish kabilar davr masalasiga aylanib bormoqda. Xuddi shu ma'noda "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish" vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, o'tgan vaqtda darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan tayyorlandi,- dedi. V. Hamidov- yangi darsliklardagi topshiriq va vazifalarni, bajarish orqali o'quvchilarimizda boshlang'ich sinflarda bilimni baholaydigan PIRLS, TIMSS, EGRA, EGMA turlarining masalalarini yechish malaka ko'nikmasi shakllandi.

Shu bois bizning davlatimizdagi maktab o'quvchilarini yuqoridagi kabi xalqaro dasturlarga tayyorlash uchun anchagina chora-tadbirlar ko'rilayotganligi ko'zga tashlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Eng avvalo 1-sinf matematika darsligi tahlili bilan tanishamiz.

E'tibor bersak 1-sinf darsliklaridagi matematikaga

O'xshashlik va farq

Narsalarning joylashishi

Narsalar sanog'i

Yassi va hajmli shakllar

Vaqt bo'yicha ketma-ketlik

Guruhlarni taqqoslash kabilarni ko'rishimiz mumkin.

"O'xshashlik va farq" mavzusi orqali bolalarning ikki jismning o'xshashlik va farqli jihatlarini topish bilan bir qatorda kreativ fikrlashi rivojlantiriladi. Bu mavzuda o'quvchilarga hisoblash uchun masala va misollar berilmaydi. Faqat 2 ta jismning o'xshash tomonlarini sinonim va antonim so'zlardan foydalanib topish ko'zda tutiladi.

Masalan, 2 ta o'xshash tasma yoki halqani berish orqali "keng halqa chetiga bezak chizing", "uzun tasmani bo'yang" kabi savollarni berish mumkin. Shu masalaning mazmuni orqali bolada keng halqa va uzun tasma tushunchasi paydo bo'ladi. Yoki boshqa masalada

“narsalarning kichiklashish tartibida yozing” topshirig’i bilan narsalarning hajmi va bir-biridan farqli jihatlarini anglash ko’nikmasini shakllantirish mumkin.

“Narsalarning joylashishi” mavzusida berilgan manzaradagi narsalarning joylashuvini bolalarga o’rgatish mumkin. Masalan, O’zbekiston Respublikasi bayrog’idagi oy va yulduzlarning joylashuvini aniqlaylik. O’zbekiston Respublikasi bayrog’idagi yarim oy va 12 ta yulduz qizil chiziqlardan tepada va bayroq shakliga nisbatan chapga joylashgan deyish mumkin. Bolalar bu orqali tepada, chapda, o’ngda va pastda so’zlarini narsalar joylashuviga nisbatan ishlata boshlaydilar. Yoki 1-sinf matematika darsligida berilgan masalaga binoan, ko’zguga qarab turgan Nargizaning cho’ntakchasi qaysi tomonda joylashgan? deyish mumkin.

Nargizaning cho’ntakchasi uning o’ng tomonida yoki chap tomonida joylashgan bo’lishi mumkin yoki uning beliga nisbatan belidan pastda yoki tepada joylashgan bo’lishi mumkin.

“Narsalarning sanog’i” mavzusini o’rganish uchun bolalarda sanash ko’nikmasi shakllangan bo’lishi kerak. Bu mavzuda o’quvchilarga yozma hisoblashga oid misol va masalalar berilmaydi, aksincha ko’rinib turgan narsalarga sanog’ini topishga oid masalalar ko’rib chiqiladi. Masalan, 9 ta vagonning chap tomonidan beshinchi va o’ng tomondan ham beshinchi vagonni toping masalasi orqali, faqat 1 dan o’ngacha sanash emas, balki sanashning boshqa usullarini ham o’rganish mumkin.

“Yassi va hajmli shakllar” mavzusi 1-sinf o’quvchilarida geometrik shakllarining boshlang’ich tushunchasini beradi.

Yassi shakllar – yerga qo’yganimizda biror narsaning hamma tomoni va uchlari yerga to’liq joylashgan narsalar.

Hajmli shakllar – hajmga ega bo’lgan shakllar, yerga qo’yganimizda bir qismi yerga tegib turadigan bir qismi yerdan uzoqlikda turgan shakllardir.

Bu mavzuni tushuntirishda bolalarning hayotda ko’rgan shakllarini misol qilib ko’rsatish mumkin. Masalan, oddiygina doira yassi shaklga shar hajmli shaklga kirishini osma soat va o’yin koptogi orqali tushuntirish mumkin. Osma soatni doiraga o’xshatish hamda sharni o’yin koptogiga o’xshatish bolalarning mavzuni oson o’zlashtirishiga sabab bo’ladi.

“Vaqt bo’yicha ketma-ketlik” mavzusi. Bu mavzuni o’rganish orqali o’quvchilar hayotida ko’p duch keladigan vaqt birliklarining qaysi biri katta, qaysi biri kichik yoki qaysi biri oldin keladi, qaysi biri keyin keladi savollariga javob beradi. Masalan, 1-sinf matematika darsligida berilgan masalada masalan, kiyinishning kiyim holatiga kelishigacha tartiblari ko’rsatilgan. Dastlab urug’, nihol, paxta, ip, gazlama va yana so’ngida kiyim ketma-ketligi bolalarda boshqa ko’p narsalarning ham shu holatga qanday kelib qolgani bo’yicha qiziqishlar tug’iladi. Yoki hafta ketma ketliklarini tushuntirish mumkin. Dushanba –birinchi, seshanba- birinchidan keyin, chorshanba- seshanbadan keyin, payshanba- jumadan oldin, juma- payshanbadan keyin, shanba- jumadan keyin, yakshanba- oxirgi.

“Narsalar guruhi” mavzusi. Masalan, non tayyorlash uchun kerak bo’ladigan masalliq larni bir guruh deb olsak, uni somsa tayyorlash uchun kerak bo’lgan masalliq larni guruhi bilan solishtiring deganda, bolalarda ham narsalarning guruhiga oid ham taqqoslashga oid tushunchalar shakllanadi. Narsalarni ularni umumlashtiruvchi belgilarga qarab guruhlarga ajratish mumkin. Bunda ularga nom beriladi. Boshlang’ich sinf darsliklarining mavzulariga e’tibor bersak barcha

mavzular bir-biriga o'xshash va bog'liq. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Yangi darsliklar 4K moduliga asoslangan. Aynan shu bolalarning rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, kollobratsiya, kommunikativlik, kreativ va tanqidiy fikrlash kabi kompetensiyalarni qamrab oladi.

Kollobratsiya – o'quvchining biror maqsadga erishish uchun jamoada ishlash ko'nikmasi.

Kommunikativlik – o'quvchilarning boshqalar bilan muloqotga kirishish qobiliyatini anglatadi.

Kreativ fikrlash – ijodiy tafakkur va yangilik qilish qobiliyatini bildiradi.

Tanqidiy fikrlash – o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash shaxsiy fikrlash mulohazalarni shakllantirish ko'nikmasidir.

Xulosa va takliflar

O'quvchilarning mantiqiy fikrlashi yuqorida ko'rib chiqqan mavzu va bo'limlarimizda eng soddalari ko'rib otilgan. Keyingi yillarda maktab o'quvchilaridan hisoblashga oid misol va masalalar emas balki fikrlashga oid mashqlar so'ralyapti. Chunki bizning mamlakatimiz ham endi jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi lozim. Shu bois asosiy bolalarni yoshlikdan ya'ni boshlang'ich sinf davridan boshlab xalqaro baholash dasturlariga mos holda tarbiyalash lozimligi ko'rsatilgan. Bugungi kun mavzularini yaxshiroq tushuntirishni xohlagan pedagog avvalo zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishi kerak. Buning uchun maktablar zaonaviy kompyuter texnikalari va zamonaviy o'quv juhozlariga ega bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangi O'zbekiston. Gazeta "Darsliklari yangidan tayyorlandi".Maqola Toshkent "Sharq" 2023. 1-5-betlar
2. 1-sinf Matematika darsligi 1-qism.
3. WWW. pves. natlib. uz.